

## SPORT KONTRAKTLARIDA MAJBURIYATLAR BAJARILISHINI TA'MINLASHNING MAXSUS USULLARI

Hakimov Sunnat Furqat o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

E-mail: [sunnat98hakimov@gmail.com](mailto:sunnat98hakimov@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola orqali sport kontraktlarida majburiyatlar bajarilishi ta'minlashda xorij tajribasi tahlil qilinib tegishli yutuqlarni O‘zbekistonda tuzilajak sport kontraktlarida qo‘llash masalasi yoritilgan. Majburiyatlarni bajarilishini ta'minlashning sport kontraktlariga xos maxsus usullari kelib chiqishi, shartnomada qo‘llanilishi hamda nizolar yuzaga kelganda qay tartibda hal etilishi tahlil etilgan. Ushbu maxsus usullar qo‘llanilgan amaliy nizoli vaziyatlar tahlil etilgan hamda klublar va futbolchilar uchun foydali jihatlari sanab o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** shartnoma, majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash, neustoyka, sotib olish bandi, ozod qilish bandi, futbolchi transferi, voz kechish haqi

Ma’lumki, majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash usullari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 259-moddasida belgilangan bo‘lib shartnomalarda bundan boshqa usullarni ham nazarda tutish mumkinligi belgilangan. Huddi shunday usullardan biri esa professional sportchilarda shartnomalarni muddatidan avval bekor qilganliklari uchun olinadigan shartnomani “sotib olish bandi” (buy-out clause) va “ozod qilish bandi” (release clause)lar hisoblanadi. Xo‘sish, bu kabi faqat sport sohasiga aloqador majburiyatlarni ta'minlash usullarining umumiyligi fuqarolik huquqidagi majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullaridan farqli va o‘xshash jihatlari nimada?

Ma’lumki, shartnomalarda majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullarini kiritishdan asosiy maqsad bu shartnomaning buzilishidan zarar ko‘rishi mumkin tarafning zararlarini qoplash hamda shartnoma shartlarini buzishga harakat qilayotgan tarafga javobgarlik mavjudligi haqida eslatib turish. Aynan ushbu jihatlarni yuqorida keltirib o‘tilgan shartnoma bandlarida ham ko‘rish mumkin. Dastlab har ikki tushunchani tahlil etib olish maqsadga muvofiqdir.

Shartnomani “sotib olish bandi” (buy-out clause) klub hamda futbolchi o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasida alohida band sifatida qayd etiladi. Ushbu bandni qo‘llashdan maqsad klubning futbolchini boshqa klubga o‘tib ketish niyati tug‘ilishi natijasida zarar ko‘rmasligi hamda futbolchi tomonidan belgilangan majburiyatlarni

bajarilishini ta'minlaydi. Bunda futbolchini sotib olish istagidagi klublar uni qancha narxda sotib olishlari mumkinligini ushbu band orqali aniq bilib oladilar. Sababi futbolchining amaldagi jamoasi sotib olish bandida ko'rsatilgan miqdordan kam to'loymi qabul qilmaslik huquqiga egadir. Bu futbolchining amaldagi klubi uchun o'z iqtidori va mahoratini to uni sotib olishmaguniga qadar ko'rsatishga undovchi usullardan biri hisoblanadi.

Masalan, futbolchini yoki mehnat shartnomasini sotib olish bandi Ispaniyada futbolchilarning mehnat shartnomalarida kiritilishi majburiy hisoblanadi. Bundan boshqa jahon futbol professional ligalarida ham tez-tez qo'llaniladi. Biroq, u kamdan-kam hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri faollashadi va buning bir necha sabablari bor:

- ko‘pincha ushbu banddagi sotib olish summasi o‘yinchining real transfer qiymatidan juda baland miqdorda belgilanadi;
- bir assotsiatsiya tarkibidan ishtirok etuvchi klublarning ushbu banddan foydalanmaslik bo‘yicha o‘zaro og‘zaki kelishuvlari mavjud bo‘lib, bu orqali iqtidorli futbolchilarni saqlab qolish hamda o‘zlarining asosiy raqobatchilariga berib yuborish orqali ularni kuchaytirmaslikka urinadilar;
- soliqlarni hisoblashda qiyinchiliklar.

2013-yilda Ispaniyada mazkur masaladagi ish sudga borib, futbolchining o‘zi shartnomani sotib olishdan kelib chiqadigan soliqni to‘lash masalasi ko‘rib chiqildi. Ushbu voqeadan so‘ng Ispaniya va Portugaliyadagi barcha futbolchilar qonuniy ravishda shartnomalarida sotib olish bandini qo‘llash huquqi berildi, bu esa futbolchiga soliq to‘lamasdan o‘z shartnomasini sotib olish imkonini beradi. Bu holat 1985-yilda qabul qilingan, futbolchilarga mehnat shartnomalari shartlaridan voz kechish imkonini beruvchi qaror munosabati bilan amalga oshdi.

Bunday holatlarda futbolchining o‘zi ham ushbu banddan foydalangan holda mehnat shartnomasini sotib olishi mumkin. Bunga yaqqol misol sifatida Ispaniyaning Barselona klubи hujumchisi Neymar Junior tomonidan o‘z mehnat shartnomasini sotib olish holatini keltirish mumkin. Ushbu holatda futbolchi Fransiyaning Parij Senter Jermen klubiga o‘tishga qattiq harakat qiladi, biroq amaldagi jamoasi bilan mehnat munosabatlari davom etayotganligi tufayli buning iloji yo‘qdek ko‘rinsada, mehnat shartnomasidagi sotib olish bandini muvvaffaqiyatli qo‘llagan holda shartnomani bekor qila oldi. Aslida sotib olish bandini shartnomalarga kiritish majburiy hisoblanmaydi. Biroq 1985-yilda Ispaniya qiroli tomonidan chiqarilgan dekretga ko‘ra agar mehnat shartnomalarida sotib olish bandi bo‘lmasa, sotib olish haqqi sud tomonidan belgilangan miqdorga binoan aniqlanadi. Ushbu holat esa har ikki tomoniga noaniqliklar keltirib chiqarganligi uchun ushbu “sotib olish bandi”ni shartnomalarga kiritish deyarli an'anaga aylangan. Neymar 2016-yil klub bilan mehnat shartnomasini yangilaydi unga ko‘ra birinchi yilda sotib olish bandi 200 million yevro, ikkinchi yili

222 million yevro hamda 3 yili 250 million yevroga ko‘tarilishi shartnomaga kiritiladi. 2017-yili 1-iyuldan boshlab Neymarni sotib olishni xohlovchi klub Barselonaga 222 million yevro to‘lashi kerak bo‘ladi. Parij klubi ushbu vaziyatda Neymarni mehnat shartnomasini sotib olishi uchun pul taqdim etadi va futbolchi Ispaniya Futbol Ligasi (La Liga) depozitiga tegishli pulni o‘tkazadi va shu orqali klub bilan tuzilgan shartnomadagi sotib olish bandini faollashtiradi. Parij klubining futbolchini o‘z shartnomasini o‘zi sotib olishi uchun pul taqdim etishi esa soliqlardan qo‘chishga imkon berar edi. Shunday qilib, 2017-yildan bevosita futbolchilarning sotib olish bandining juda yuqori belgilab qo‘yilish holatlari boshlandi. Bu esa bugungi kunda ba’zi futbolchilarning real transfer qiymatidan 5 yoki 10 baravar yuqori narxda sotib olish bandi kiritilayotganligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi band esa “ozod qilish bandi” (release clause) professional futbolchilarning klublar bilan tuzgan mehnat shartnomasi davomida majburiyatlarni bajarishlarini ta’minalashga qaratilgan vosita bo‘lib, unga muvofiq quyidagi holatlardan biri ro‘y bersa 1) agar klub kelasi mavsumda yuqori ligada qatnasha olmasa; 2) o‘yinchini sotib olish taklifini bildirishi mumkin bo‘lgan klublarning aniq ro‘yxati mexnat shartnomasida ko‘rsatilgan taqdirda ushbu klublardan biri transfer taklifi bilan chiqsa futbolchi klubda faoliyat yuritish majburiyatidan ozod etiladi hamda sobiq klubga voz kechish haqi o‘zaro kelishilgan holda to‘lab beriladi. Voz kechish haqi bunday vaziyatda transfer summasini tashkil etishi mumkin.

Voz kechish haqi deb majburiyatni bajarish o‘rniga muayyan miqdorda pul berish va uning miqdori, muddatlarini taraflarning o‘zaro kelishivi asosida belgilashiga nisbatan aytilishi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 342-moddasida belgilangan.

Shartnomada ko‘rsatilgan holatlar ya’ni 1) agar klub kelasi mavsumda yuqori ligada qatnasha olmasa; 2) o‘yinchini sotib olish taklifini bildirishi mumkin bo‘lgan klublarning aniq ro‘yxati mehnat shartnomasida ko‘rsatilgan taqdirda ushbu klublardan biri transfer taklifi bilan chiqish holati yuzaga kelgan taqdirda, futbolchi yangi futbol klubni bilan muzokaralar olib borish huquqiga ega bo‘ladi. Bu, masalan, "Suonsi" futbol klubidan J. All彭ning "Liverpul" futbol klubiga o‘tishi bilan bog‘liq edi. J. Allen ishi bo‘yicha, yangi shartnomani bo‘yicha muzokaralar o‘tkazish taklifi shartnomada ko‘rsatilgan beshta klubdan biri, jumladan, "Liverpul" futbol klubidan kelgan taqdirdagina ozod qilish bandi ishga tushirilgani xabar qilingandi.

Bunday shartnomani bandining klublar uchun ustun tarafi futbolchiga har qanday klub emas balki faqatgina futbolchi va klub o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan kirtilgan klub (klublar)dan taklif bo‘lsagina muzokaralarga kirishishga imkon beradi. Ushbu taklif shartnomada belgilab qo‘yilgan minimum summa doirasida bo‘lishi shartdir.

Ushbu shartnoma bandini O‘zbekiston Professional Futbol ligasida mavjud klublarda to‘p suruvchi futbolchilar ham o‘z shartnoma bandlarida aks ettirishlari foydali hisoblanadi. Sababi O‘zbekiston Super ligasida mavjud futbol klublarining barchasining moliyaviy holati barqaror darajada emas hamda o‘z futbolchilari uchun to‘lanadigan maoshlarida katta farq mavjud. Bu esa iqtidorli futbolchining bir jamoada uzoq vaqt uncha yuqori bo‘lmagan maosh bilan o‘z faoliyatini davom ettirishi uning o‘z ustida ishlashini kamayishiga oxir oqibat darajasini yoqotishiga sabab bo‘ladi. Agar oldindan yetakchi klublar nomi shartnoma bandlarida kirtilgan bo‘lsa, bu holatda ushbu jamoalarga shartnoma muddati tugamasdan jamoalarning o‘zaro kelishuvi natijasida o‘tishi hamda o‘z mahoratini yanada oshirib borishiga imkon yaralishi mumkin.

Ozod qilish bandi jahon futbolida keng tarqalgan, chunki u o‘yinchini boshqa klubga sotishda klub rozi bo‘lishi kerak bo‘lgan aniq miqdor va aniq klublar ro‘yxatini o‘zida aks ettiradi.

Odatda, “ozod qilish bandi”da boshqa klublardan takliflarini to‘xtatuvchi vosita sifatida foydalanish ham ko‘zda tutilishi mumkin. Agar shartnomada oldindan ko‘rsatilgan summaga sotib olish so‘rovi kelib tushsa ham, klub transferni bloklashi mumkin. Biroq, agar klub “ozod qilish bandi”ga rioya qilishga rozi bo‘lsa, o‘yinchidan hozirgi ish joyini tark etib yangi klubga o‘tishdan manfaatdor yoki yo‘qligini so‘rashi kerak. O‘yinchi ijobjiy javob berishga majbur emas va faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlab qaror qabul qiladi. Mamlakatdan tashqaridagi manfaatdor klublar uchun sotuvchi klub shartnomaning ushbu bandidan sotuv narxiga ko‘rsatma sifatida foydalanishi mumkin. Biroq, klub xorijdan kelgan taklifni qabul qilishga majbur emas va boshqa davlat klubni qiziqish bildirayotgan futbolchi uchun yuqoriroq summa talab qilishi mumkin.

Shunday qilib, shuni aytish mumkinki, “sotib olish bandi” va “ozod qilish bandi” bir-biridan quyidagi jihatdan farq qiladi:

- “sotib olish bandi” o‘yinchiga mehnat shartnomasining amal qilish muddatining istalgan vaqtida sotib olish summasini to‘lash imkonini beradi;

- “ozod qilish bandi” odatda “transfer oynasi” ochiq paytda qo‘llaniladi va o‘yinchining xohishiga ko‘ra yuzaga kelmaydigan, lekin oldindan kelishilgan shartlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan shartnoma shartlarining paydo bo‘lishiga ishora qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Professional Ligasida ishtirok etuvchi klublar professional futbolchilar bilan asosan shartnomalarni 6 oy yoki 1 yil muddatga tuzadilar. Biroq bu klublar uchun moliyaviy jihatdan foyda keltirmaydi. Klublar futbolchilar bilan uzoq muddatli shartnoma tuzishgan taqdirda futbolchini bor mahoratini namoyish etish hamda boshqa top darajadagi klublardan yaxshi iqtisodiy takliflar kelib tushishiga erishishlari mumkin. Buning uchun shartnomada belgilab

qo‘yilgan bandlar orasiga “sotib olish bandi” hamda “ozod qilish band”lari qo‘shilsa klublar ham o‘z moliyaviy holatlarini ancha barqaror holatga keltirish imkoniga ega bo‘ladilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son; 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son, 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son; 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son;
2. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi: Darslik I qism. –T.: TDYU nashriyoti, 2017. 237-bet;
3. Кузнецов Глеб Ильич (2021). Опция выкупа и опция освобождения как пункты трудовых договоров между футболистами и футбольными клубами, защищающие права спортсменов. Вестник экономики, права и социологии, (3), 147-150;
4. Royal Decree 1006 / 1985, Of 26 June, Which Regulates The Special Employment Relationship Of Professional Athletes;
5. Daniel Geey. Buy-Out & Release Clauses in Football Contracts: the Basics. – URL: <https://www.danielgeey.com/post/buy-out-release-clauses-in-football-the-basics>;
6. <https://www.besoccer.com/new/bayout-clauses-in-spain-how-do-they-work>
7. Panagiotopoulos D. Sports Law (Lex Sportiva) in the World. – Sakkoulas: Athens, 2005. – P. 50-65.